

“ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI” ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI

O’ZBEKISTONDA BALIQCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI

S.F. Salimova

*Buxoro davlat universiteti
Agronomiya va biotexnologiya fakulteti
Biologiya kafedrasi p.f.f.d, (PhD)*

Shaxnoza Muzafarovna Avliyakovna

*Buxoro davlat universiteti
Biologiya (fan yonalishi bo'yicha) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
El pochta: avliyakovashaxnoza@gmail.com*

Annatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda baliqchilik sohasining rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Zooplankton, fitoplankton, tuban suv o'tlari, ko'k-yashil suv o'tlari, vegetatsiya.

Baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan talab yildan yilga ortmoqda. Shu bois, mamlakatimizda baliqchilikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Baliq yetishtiruvchi tadbirkorlarga bir qator imkoniyat va imtiyozlar berilmoqda.

2016-yilda tarixda birinchi marta dunyoda aholi boshiga baliq iste'moli yiliga 20 kilogrammdan oshgan, ammo O'zbekistonda o'sha paytda bu ko'rsatkich pastga tushib, yiliga 2 kilogrammni tashkil etgan edi.

Ushbu fojiali vaziyatni to'g'rilash maqsadida mamlakat rahbari choralar ko'rdi va 2017-yil may oyida "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi tashkil etildi, unga nafaqat baliq tutish hajmini oshirish, balki vayron bo'lgan sanoatni amalga tiklash, suv resurslaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, zamonaviy intensiv texnologiyalarni joriy etish va bozorning faol ishtirokchilariga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vazifalari qo'yilgan.

Aholining arzon va sifatli baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish xususiy mulkchilikka asoslangan baliqchilik xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga bevosita bog'liq. Bu, o'z navbatida, sun'iy hovuzlar samaradorligini oshirish, tabiiy suv havzalarida baliq zaxiralarini ko'paytirish, mustahkam oziqa bazasini yaratish, ularga xizmat ko'rsatishni sifat jihatidan yaxshilash, mahsulotni qayta ishlashni tashkil etish hisobiga mahsulot olish va daromad miqdorini oshirishni taqozo qiladi.

Oqsil, yog', mineral tuzlar, vitaminlar kabi o'sish uchun zarur moddalarni baliqlar tabiiy oзуqalardan va qo'shimcha holda beriladigan sochma yoki donador omuxta em tarkibidan oladi. Tabiiy oзуqalarga quyidagilar kiradi:

1. Plankton suv qarida yashovchi kam harakatchan mayda suv o'tlari va suv jonivorlaridir.

Ular 2 xil bo'ladi:

a) Fitoplankton-(tuban suv o‘tlari: yashil, ko‘k-yashil suv o‘tlari) bular bilan oq amur, tolstolob baliqlari oziqlanadilar;

b) Zooplankton ular sodda organizmlar bo‘lib, ularga infuzoriyalar, kolovratkalar, kurak oyoqli qisqichbaqalar, shox mo‘ylovli qisqichbaqalar bo‘lib, qariyb hamma karpsimon baliqlar yoshligida zooplanktonlar bilan oziqlanadilar. Chipor tolstolob balig‘i esa bir umir zooplanktonbilan oziqlanadi.

Baliqlarni oziqlantirishni nafakat bir vegetatsiya mavsumida, balki yillar davomida doimiy ravishda yaxshilab borish tavsiya etiladi. Buning uchun ishchi jurnalini yuritish, oy va yil bo‘yicha tahlil kilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Oziqlantirish samaradorligini oshirish maqsadida baliqlarga berilayotgan oziqalarni doimiy ravishda nazorat qilib borish kerak.

Baliqchilikning rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash barobarida, aholini baliq tarkibidagi yuqori sifatli oqsillar bilan ta‘minlash imkonini beradi. Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston uchun baliqni iste‘mol qilishning minimal me‘yor miqdori bir yilda bir kishi uchun 12 kilogrammni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich dunyo miqyosida 1 kishi uchun 16,6 kilogrammdir.

Prezidentimizning 2018-yil 6-noyabrdagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham soha rivojida muhim ahamiyat kasb etib, yanada keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Intensiv usulda baliq yetishtirishni bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish va rag‘batlantirish, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, sohaga innovatsion g‘oyalar, ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini keng joriy qilish, baliqchilik tarmog‘ini yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ushbu hujjatda sohada to‘liq tizimli (inkubatsiya sexi, chavoq va tovar baliq yetishtirish, yuqori oqsilga boy baliq yemi, qayta ishlash va saqlash) ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan baliqchilik klasterlari tashkil etish istiqboli belgilab berildi.

Tashkil etilayotgan baliqchilik klasterlarining yillik baliq yetishtirish quvvati kamida 50 tonna bo‘lgan taqdirda ular 2019-yil 1-yanvardan boshlab dastlabki uch yil davomida barcha soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalardan ozod etiladi. Bundan tashqari, 2021-yil 1-noyabrga qadar muddatda naslli ona baliq, baliq uvuldirig‘i, shuningdek, yurtimizda ishlab chiqarilmaydigan inkubatsiya, laboratoriya, intensiv usulda baliq yetishtirish, baliq ovlash, baliq mahsulotlarini qayta ishlash, muzlatish va saqlash uchun zarur bo‘ladigan asbob-uskuna, anjom, mexanizmlar va ularning ehtiyot qismlari, muqobil energiya ta‘minoti uskunalari, melioratsiya ishlari uchun maxsus texnikalar va tirik baliq tashuvchi transport vositalari, chet el tashkilotlari va ularning sho‘ba korxonalari, firma do‘konlari, dilerlik tarmoqlari va tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan baliqchilik xo‘jaliklari ehtiyoji uchun chetdan keltiriladigan omixta yem va mineral o‘g‘it (ammofos) bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) ozod etiladi. Bu baliqchilikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, yurak-qon tomir kasalliklarida, qonda xolesterin darajasi ko‘tarilganda, kamqonlik, behollik va jismoniy zo‘riqishda, nevroz, teri kasalliklari, podagra va revmatizm, ko‘rish qobiliyati sustlashganda baliq go‘sht koni foyda ekan. Bolalar baliqdan tayyorlangan taomlarni iste‘mol qilishi natijasida kariyes, soch to‘kilishi, bo‘qoq dardlaridan forig‘ bo‘lar ekan.

Shifokorlar vitamin va minerallarga boy ushbu mahsulotni ko‘proq iste‘mol qilishni tavsiya etadi. Shunday ekan, Prezidentimiz rahnamoligida baliqchilikni rivojlantirish, qayta ishlash va aholi o‘rtasida iste‘molini bir necha baravar ko‘paytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar millionlab kishilar salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xusenov, S.Q. Niyozov D.S., Sayfullaev G'.M. "Baliqchilik asoslari" Buxoro, 2010
2. Скляров Г.А. "Рыбаводство" растов на дону феникс 2011 г.
3. Шерман И.М., Чижик А.К. "Прудовое рыбоводство", Киев. Высшая школа 1989.
4. Умедов, Шахзод, and Нафиса Авлиякулова. "КУЛЬТУРА И ПСИХОЛОГИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ." *Современная педагогика и психология: проблемы и перспективы*. 2020.
5. Avliyakulova, Nafisa. "БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАСВИРИЙ-ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
6. Muzafarova, A. N. (2021, February). FORMS OF PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR VISUAL AND CREATIVE ACTIVITIES. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 119-123).
7. Сабунаев Виктор – "Занимательная ихтиология"- М-2013 г-87-стр
8. Yunusov, R., Ganieva, F. A., Artikova, M. I., & Atayeva, Z. A. (2022). THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 773-781.
9. Ganieva, F. (2021). Influence Of Cotton Cultivation Techniques In Bukhara Region On Reduction Of Damage To Plants By Turnip Moth. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
10. Ширинов, А. Л., Батиров, Д. С., & Шомуродов, О. Н. (2021). ВАЖНОСТЬ ЦВЕТОВЕДЕНИЯ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 83-85.
11. Djalolovich Y. N. et al. IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FINE ART TEACHERS //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 44-46.
12. Аминов, Акмал Шавкатович, et al. "ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ." *European science* 2 (58) (2021): 77-79.
13. Азимова М. Б., Ибадуллаева Ш. И. XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро аҳоли турар жойлариинтерьер безаги (Файзулла Хўжаев уй-музеи мисолида) //Евразийский научный журнал. – 2017. – №. 2.
14. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
15. Азимова, М. Б., Азимов, Б. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ИСКУССТВО РОСПИСИ ТКАНЕЙ. *European science*, (2 (58)), 41-43.
16. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). ОСНОВЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (2 (58)), 62-65.
17. SI Ibadullaeva. PAVEL BENKOV'S LEGACY AT THE BUKHARA MUSEUM OF FINE ARTS. *International Engineering Journal For Research & ...*, 2020.
18. Rajabov T. I., Oripov N. O. Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.

19. Rajabov, Tokhtasin Ibodovich, and Mahliyo Feruzovna Rutamova. "The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an Urgent Pedagogical Problem." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 404-408.
20. МБ Азимова, ШИ Ибадуллаева. XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АҲОЛИ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ИНТЕРЬЕР БЕЗАГИ (ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ УЙ - МУЗЕЙИ МИСОЛИДА).
21. Ibadullaeva Shaxnoza Ilhamovna. Avlikakulova Nafisa Muzafarovna., Sobirova Sharofat Umidullayevna. HARMONIZATION OF TYPES OF FABRIC ART PROCESSING TO STUDENTS..INTERNATIONAL JOURNAL OF PSYCHOSOCIAL REHABILITATION, 1-7 ISSN:1475-7192
22. Мамурова Д. И., Мамурова Ф. И. Соотношения навыков черчения с опытом психологического исследования //Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири. – 2015. – №. 1.
23. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 10, 1-4.
24. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODOICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 4
25. Mardov S. K., Khasanova M. N., Absalomov E. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF TEACHING ARCHITECTURE DRAWING IN TYPES OF EDUCATION //Euro-Asia Conferences. – 2022. – С. 32-35.
26. Mardov, S. K., & kizi Farxatova, Z. X. (2022, February). THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DESIGN AND ITS TYPES. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 54-57).
27. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.
28. Ibadullaeva, S. I. (2022). The Role of Art in the Development of Junior Schoolchildren. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 130-133.
29. Ибадуллаева Ш. И., Мухаммедова А. Н. ТВОРЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 2.
30. Ibadullaeva, S. I. (2022). The Role of Art in the Development of Junior Schoolchildren. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 130-133.
31. Avliyakulova, N. M. (2021). Tasviriy San’at O ‘Qitish Metodikasi» Fanidan Topshiriqlarni Nazorat Qilish Va Baholash. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 1(5), 270-276.